



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA  
XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



**2025-yil 18-oktabr**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK  
MASALALARI**

**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**

**2025-yil 18-oktabr**

**Toshkent – 2025**



**ULUG'BEK HAMDAM IJODINING LINGVOPRAGMATIK  
TAHLILIDA PRESUPPOZITSIYA  
PRESUPPOSITION IN THE LINGUOPRAGMATIC ANALYSIS OF  
ULUG'BEK HAMDAM'S WORK**

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/RJWP7304](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/RJWP7304)

**Turobova Nargiza Arolovna**

*tayanch doktorant,*

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat*

*o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

*[nargizaralovna@gmail.com](mailto:nargizaralovna@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romanidagi yashirin ma'no pragmatik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Maqolada presuppozitsiya hodisasi badiiy matn semantikasini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida qaraladi. Asarda presuppozitsiyaning leksik va morfologik birliklar orqali ifodalangani tahlil etilib, ularning matn mazmunini ochish, qolaversa o'quvchi idrokida pragmatik ma'no hosil qilishdagi o'rni ochib beriladi. Aynan presuppozitsiyaning kontekst bilan uzviy bog'liqligi va muallif nutqida yashirin ma'no yaratishdagi pragmatik vosita yuzaga chiqariladi. Shuningdek, maqolada presuppozitsiya pragmatik aspektda nafaqat badiiy-estetik ta'sirni kuchaytiruvchi yashirin birlik hamda muallif uslubining o'ziga xosligini namoyon etuvchi vosita sifatida talqin etiladi.

**Kalit so'zlar:** presuppozitsiya, pragmatika, yashirin ma'no, badiiy matn, leksik birlik, morfologik vosita, kontekst, Ulug'bek Hamdam, Sabo va Samandar, badiiy-estetik ta'sir.

**Annotation.** This article analyzes the hidden meaning in Ulugbek Hamdam's novel "Sabo and Samandar" from a pragmatic point of view. The article considers the phenomenon of presupposition as the main tool for shaping the semantics of a literary text. The expression of presupposition in the work through lexical and morphological units is analyzed, and their role in revealing the content of the text, as well as in creating pragmatic meaning in the reader's perception, is revealed. It is precisely the inextricable connection of presupposition with the context and the pragmatic tool for creating hidden meaning in the author's speech that is revealed. Also, the article interprets presupposition in a pragmatic aspect not only as a hidden unit that enhances the artistic and aesthetic effect, but also as a tool that demonstrates the uniqueness of the author's style.

**Keywords.** presupposition, pragmatics, hidden meaning, literary text, lexical unit, morphological tool, context, Ulugbek Hamdam, Sabo and Samandar, artistic and aesthetic effect.



Ulug‘bek Hamdam asarlarini til boyligi, so‘z san‘atkorligi jihatidan o‘rganish, asarlariga yangicha nigoh bilan qarash tilimizning katta imkoniyatlarini, so‘zlarni turli badiiy rang-baranglikda tovlanishini namoyon etish, shuningdek yozuvchi ijodini yanada kengroq tadqiq etish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ulug‘bek Hamdamning badiiy mahoratini uning til boyligi, lisoniy mahorati, so‘z san‘atisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Har bir til o‘ziga xos xususiyatlar va o‘zining mentalital ko‘rinishiga ega. Tildagi implitsitlik hodisasi barcha tilning muammosi bo‘lganidek, o‘zbek tilining murakkab masalalaridandir. Kommunikantlarning o‘zi anglab yetishi zarur bo‘lgan xabarlar nutqda ko‘pincha yashirin tarzda ifodalanadi va pragmatik ta‘sirning kuchi yuqori bo‘lishi bilan e‘tiborini tortadi. Bunday ta‘sir presuppozitsiya deyiladi. Lingvistik presuppozitsiyaga ishora qiluvchi til belgilari leksik, morfologik, va sintaktik vositalardan iboratdir. Lingvistik presuppozitsiyani o‘rganishda tilshunoslarning asosiy e‘tibori unga ishora qiluvchi til vositalariga qaratiladi. Negaki presuppozitsiyaga ishora qiluvchi til birliklarining lisoniy tadqiqi gap mazmuniy tuzilishidagi o‘ziga xos o‘zgarishlarni aniqlashda alohida ahamiyatga ega [Rahimov U, 2004:58].

Ma‘lumki, “Presuppozitsiya inferensiyaning xususiy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, bunda muloqot ishtirokchilari hodisa haqida umumiy ma‘lumotga ega bo‘lishlari kerak. Presuppozitsiya matnda yo‘qolmaydigan, o‘zgarmaydigan hodisa [Safarov Sh, 2008:318]. Presuppozitsiyaning o‘rganilish tarixi nemis mantiqshunos faylasufi G.Frege nomi bilan bog‘liq. U presuppozitsiyani “Hukmning tabiiy asosi” sifatida tushunadi. Shuningdek, N.Xomskiy, Van Deyk, J.Ostin, Ch.Osgud va boshqalar ham turli yo‘nalishlarda o‘rganganlar. Rus tilshunosligida N.D.Arutyunova, Y.V.Paducheva, V.A.Zvegensevlar tadqiqot olib borgan bo‘lsalar, o‘zbek tilshunosligida N.Mahmudov va A.Nurmonovlar presuppozitsiya bo‘yicha samarali izlanish olib borganlar [Rahimov U, 1994:7]. M. Hakimov presuppozitsiya terminini “tagbilim” tushunchasi bilan ifoda etishga harakat qilgan. “Presuppozitsiya (tagbilim) ham, tagma‘no ham lingvistik muammo ekanligi, shuningdek, matn semantik implikaturasining birliklari ekanligi bilan integral belgiga ega bo‘ladi” [Hakimov M, 2001:33], deya e‘tirof etgan. N.D.Arutyunova ham presuppozitsiya “so‘zlovchining umumiy bilish majmuasi”, “ularning oldindan kelishuvi” sifatida gap sintaksisi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi [Артюнова Н,1973:85]. Y.V.Paducheva presuppozitsiya (prezumpsiya)ning ikki turini ko‘rsatadi:

1) semantik prezumpsiya – bu yolg‘onligi tufayli gapning semantik chalaligiga olib keladigan semantik komponent;

2) pragmatik prezumpsiya – bu gapning shunday komponentiki, so‘zlovchi uning normal qo‘llanishini tinglovchi uchun ma‘lum, deb hisoblaydi [Падучева Е.В,1977:8]. Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, Presuppozitsiya muloqot ishtirokchilarining nutqiy tejamlilikka ehtiyoji, til birliklarining nutqiy vaziyatda sintaktik strukturaga qo‘shimcha ikkilamchi ma‘lumot berish imkoniyatiga egaligi,



suhbat qatnashchilarining bo'lib o'tgan yoki bo'lajak jarayon haqidagi oldindan ma'lum bilimlari kabi omillar ta'sirida nutqiy maydonga chiquvchi hodisa.

O'zbek tilida presuppozitsiyaning moddiy signali sifatida xilma-xil vositalar ishtirok etishi mumkin: a) leksik vositalarning ma'no komponentlari; b) *hatto, faqat, yolg'iz, -gina, ham* yuklamalari; *tashqari, boshqa, o'zga* ko'makchilari va b. Masalan, *Undan tashqari Nasiba ham keldi; Ishlash o'rniga uxladi.*

Ayrim fe'l leksemalar semantikasida harakat asosida yuzaga kelgan natijaviy holatga ishora qiladi. Masalan, qizarmoq (qizil). Bunday fe'l leksemasi belgi bildiruvchi asosdan hosil bo'lgani uchun uning ma'nosi yasama so'z tarkibida ham butunlay o'chib ketmaydi. Bu ma'no presuppozitsiya yordamida leksema semantikasi orqali anglashilib turadi. Mazkur fe'l leksemasi quyidagi misolimizda presuppozitsiyani hosil qilgan:

*–Men...men...men nimayam derdim...– Sabo kutilmagan taklifdan sarosimaga tushib qoldi. –Hamma gapni o'zlaring aytayapsizlar-u, yana cho'zish shartmikan?.. – Qimtinib, yuzlari anordek qizarib arang so'zladi Sabo. (Yuzlari qizil) [Hamdamov U, 2018:102].*

Asarni tahlil qilar ekanmiz badiiy parchada presuppozitsiyaning leksik hamda morfologik turlarini uchratishga guvoh bo'ldik :

*Kechqurun Gulchehra opa o'ylaganidek, oilaviy xursandchilik bo'ldi. Hech nimadan xabari yo'q to'ng'ich farzand Bahodir ham o'sha kuni tasodifan Moskvadan uchib kelib qoldi*

(“Sabo va Samandar” 162-bet). Ushbu gapda presuppozitsiya orqali “*Gulchehra opaning boshqa farzandlari ham bor*” axboroti ifodalangan, bundan tashqari “uchmoq” leksemasi orqali “*Samoliyotda keldi*” presuppozitsiyasi mavjud. Ham yuklamasi yordamida *Bahodirdan boshqa farzandlari ham oilaviy xursandchilikda ishtirok etgan* yashirin axboroti anglashiladi.

*Axir, farzand bo'lib onamning egniga aqalli bitta chit ko'ylak olib berolganimni eslolmayman* (“Sabo va Samandar” 191-bet). Samandarning nutqidan olingan ushbu gapda “*Onamga hech qachon ko'ylak olib bermaganman*”, “*Onasi chit ko'ylakdan yaxshisiga arziydi*” kabi leksik-semantik presuppozitsiyalar orqali yashirin axborot yuzaga chiqqan. Qolaversa, asarda maqollar orqali ham leksik presuppozitsiyaning ifodalanishi kuzatiladi. Ayrim maqollar jumla tarkibida semantik zidiga ishora qilish orqali presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Masalan,

*–Mundoq o'ylab qaragam, Bakir, Saboning o'z tengiga turmushga chiqayotgani to'g'riga o'xshaydi. Teng tengi bilan degan gap bor-ku!.. Faqat she'r yozish bilan oilani boqib bo'lmasa kerak-a, Bakir, o'zing ayt!..*(“Sabo va Samandar” 189-bet). Gapda qo'llangan maqol orqali “*Men Saboning tengi emasman*” presuppozitsiyasi anglashiladi.

Romanda semantik tabiati orqali presuppozitsiyaga ishora qiluvchi leksemalar keng qo'llanganini ko'ramiz. Bunday leksik birliklar sirasiga fe'l leksemalar alohida o'rin tutadi. Ayrim fe'l leksemalar presuppozitsiya orqali harakatga qadar amal qilgan holatga ishora qiladi. Masalan, bir holatdan ikkinchi holatga o'tish



harakatini anglatuvchi *tuzalmoq (kasal bo'lgan)* fe'l leksemasida harakatga qadar amal qilgan holat haqida ma'lumot beruvchi presuppozitsiyaga yo'l ochadi. Presuppozitsiya aynan leksik birliklarning antonim xususiyati orqali yuzaga chiqadi.

– *Qo'ying, yig'lamang Sabo tuzalib ketadi hali* (“Sabo va Samandar” 325-bet). Mazkur gapda fe'l leksimasi orqali “*Sabo kasal*” presuppozitsiyasi namoyon bo'ladi.

Sifatlarning pragmatik imkoniyati muayyan matn, nutqiy vaziyat, til egalarinig tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabi omillar bilan bog'liq holda tekshirish zaruratini yuzaga keltiradi. O'zbek tilida sifatlarning muayyan kontekst, nutqiy vaziyat, til egalarining tashqi olam haqidagi umumiy bilimlari va til ko'nikmalari kabi omillar bilan bog'liq holda pragmatik vazifa bajarishi garchi shu nom ostida o'rganilmagan bo'lsa-da, bu haqda ham ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Xususan, “O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi” kitobi mualliflari “*Men qiziq kitoblarni o'qiyman*” gapida qo'llangan *qiziq* sifati misolida ayrim sifatlarning presuppozitsiyaga ishora qilishi (*Boshqa kitoblarni o'qimayman*), ya'ni pragmatik vazifa bajarishi masalasiga e'tiborini qaratishgan [Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S, 1992:118].

– *Hijolat bo'lma, bolam,- gapga qo'shildi onaxon,- hammamiz ham ba'zan o'zimizga o'zimiz gapiradigan bo'pqolamiz. Amakingning ham boshidan o'tgan bir vaqtlar, a, adasi?- choliga o'smoqchilab qaradi onaxon.*

– *Haaa, yana boshladingmi eski ashulangni?- sirini oshkor qilgisi kelmadi otaxon* (“Sabo va Samandar” 219-bet). Mazkur nutq parchasidan quyidagi presuppozitsiyalar yuzaga chiqqan: 1.Sifat antonimi orqali “*Yangisi yo'q*”, 2. Yana yuklamasi orqali “*Avval ham shunday bo'lgansan*” kabi. *Samandar radioni belgilagan vaqtda ochib, suyuqli ovozni qidira boshladi. Ammo topolmay xunobi chiqdi. Shundayam salqin joyda turib olgancha quloqlarini ding qilib intiqlik bilan kutishda davom etdi. Yo'q!* (“Sabo va Samandar” 52-bet). Parchada qo'llangan *suyuqli ovoz* yashirin ma'noda Saboga tegishli ekanligiga ishora qilish orqali presuppozitsiyani vujudga keltirgan.

Leksik birliklarning antonimik xususiyati asosida uning zidiga ishora qiluvchi presuppozitsiyaga ishora qiladi:

– *Nima deysan, - birdan jilmayibgina gap qotdi Sabo.*

– *Yangi yuragimga u kelarmikan?...* (“Sabo va Samandar” 343-bet). Sabo va Shahloning suhbatidan olingan ushbu jumlada presuppozitsiyaning leksik birligi antonim xususiyat asosida belgilangan: “*yangi*” so'zining gap ichidagi mazmuniy xususiyatidan “*eski*” to'g'risidagi presuppozitsiya anglashilgan. Ya'ni “*Samandar eski yurakda*” degan presuppozitsiyaga ishora qilyapti.

Har qanday morfologik birlik istalgan nutqiy qo'llanishda presuppozitsiyaga ishora qilavermaydi. Morfologik birliklarning nutqiy vaziyat talabi va nutq egasining kommunikativ niyati asosida presuppozitsiyani ifodalashi ularning grammatik tabiati bilan bog'liq holda amalga oshadi. Morfologik birlikning presuppozitsion xususiyati kontekst orqali yuzaga chiqadi. O'zbek tilida



presuppozitsiyasiga ishora qiluvchi turli morfologik birliklarni farqlash mumkin. Bu vazifada mustaqil soʻzlar, yordamchi soʻzlar, taqlid, undov, modal soʻzlar va hatto baʼzi affikslar ham kela oladi. Presuppozitsiyaga ishora qiluvchi morfologik birliklarning til egalarida turlicha qoʻllanish darajasini hisobga olmaganda yosh jihatdan farqlanishida deyarli tafovut sezilmaydi. Bunday birliklar bolalar va kattalarda ham deyarli bir xil tipdagi presuppozitsiyalarni yuzaga chiqaradi [Qurbonova M.A, 2018:140].

Presuppozitsiyaning lisoniy xususiyatlari tilshunosligimizda U.Rahimov, A.Pardayev, M.Qurbonova kabilar tomonidan tahlil qilingan. Jumladan, U.Rahimov presuppozitsiyaga ishora qiluvchi vositalar ichida yuklamalar va qoʻshimchalar alohida oʻrin tutishini, ular gap ichida oʻziga xos mantiqiy maʼnolar anglatib, oʻzi ishtirok etgan gapning mazmuniy tuzilishini murakkablashtirishini hamda turli maʼnodagi presuppozitsiyalarga ishora qilinishini taʼkidlaydi. Chunki yuklamalarning oʻziga xos xususiyatidan kelib chiquvchi murakkablik ularning vazifasiga ham taʼsir etadi, deb hisoblaydi. Oʻzbek tilidagi *ham, hatto, hattoki, nahot, nahotki, faqat, yolgʻiz, yakka, birgina, xuddi, naq, na, xolos, yana, tagʻin, tugul, -da, -oq, -yoq, -ki, -kim, -chi, -a, -ya, -gina (-kina, -qina)* kabi affiks yuklamalar alohida turli maʼnodagi presuppozitsiyaga ishora qila olishi bilan ajralib turishini qayd etadi [Rahimov U.E, 1994:32].

Oʻzbek tilida ayrim yuklamalar borki, ular gapda presuppozitsiyaga ishora qiladi. “Presuppozitsiya **faqat** yuklamasi yordamida yuzaga keladi”. *Faqat* ayiruvchegaralov yuklamasi gapda oʻz qurshovidagi boʻlaklarni ajratib koʻrsatish bilan birga, ularning maʼnosiga zid xarakterdagi presuppozitsiyani shakllantiradi [Rahimov U.E,1994:91]. Shu sababli nutqda *faqat* yuklamasi sintaktik oʻramlardan doimo zid mazmundagi axborotlar yuzaga chiqadi. Masalan, “Sabo va Samandar” asaridan olingan parchani tahlilga qilaylik,

Samandar – *Men oʻz sevgimda erkin edim. Boshimda faqat ishq degan savdo bor edi. Faqat uning bilan ovora edim.* Presuppozitsiya – Boshimda boshqa savdo yoʻq hamda boshqa narsa bilan ovora emasman. *Samandar ham faqat Saboni kuylardi, ishqdan baxs etardi, ishqni tarannum aylardi.* Presuppozitsiya – Ishqda Sabodan boshqasini kuylamaydi.

Shuningdek, “**yana** yuklamasi takroriylik maʼnosidagi presuppozitsiyani yuzaga keltiradi” [Rahimov U.E,1994]. *Samandar – Goʻyo boshi uzra qilich serpalayotgan jonivordek oʻzimni chor tomonga uraman. Ammo bilmaymanki, najotim qilichdami va yoki har tarafda?!..Yana uyqusizlik balosi, yana iztirob, yana...* Presuppozitsiya – Avval ham uyqusizlik, avval ham azob boʻlgan.

–*Ux! Yana oʻsha eski gap! – Bakir boshni chayqab, kutilmaganda stolni mushladi* (“Sabo va Samandar” 228-bet). Presuppozitsiya – Avval ham qandaydir gap boʻlgan.

–*mi* soʻroq yuklamasi yordamida tuzilgan ritorik gaplar ham presuppozitsiyaga ishora qiladi. Bunday gaplar mazmunan inkorni ifodalaydi.



*Hilola opa – Tolibjon kuyovimiz bo'lsa yomonmi?* (“Sabo va Samandar” 33-bet) Presuppozitsiya – Tolibjon kuyovimiz bo'lsa yaxshi.

*Abdug'ani aka – Ayolga muhabbat qo'ygan bir senmi?* (“Sabo va Samandar” 45-bet) Presuppozitsiya – Ayolga muhabbat qo'ygan bir sen emas.

Xulosa o'rnida aytish joizki, Presuppozitsiya – muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan ma'no. Presuppozitsiya tushunchasi kontekst va vaziyat tushunchalarini o'z ichiga qamrab oladi. Kontekstdan tashqarida presuppozitsiya uchun yo'l yopiladi. Presuppozitsiyani yuzaga keltirishda tilning maxsus vositalari (presuppozitsion signallari) bilan birga, nutqiy vaziyati, kontekst, til egalarining nutq obyektiga haqidagi umumiy bilimlari ham ishtirok etadi. Ulug'bek Hamdam asarlarining pragmatikasini tadqiq etish borasida olib borgan pragmatik tahlilimiz mobaynida ustoz yozuvchining faqat o'zigagina xos bo'lgan badiiy mahoratini kashf etishga harakat qildik. Bunda leksik, morfologik-sintaktik birliklar pragmatikasi haqida so'z borganda, ulardagi pragmatik ma'noni ochib berishda, ya'ni presuppozitsiyaga ishora qilishi va jumlagi qo'shimcha mazmun berishi masalasiga e'tiborimizni qaratdik.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Артюнова Н.Д. Понятие презуппозиции в лингвистике // Известия АН СССР. Серия лит.и яз. – 1973. – Т. 32. Вып.№1. – С.85.
2. Hamdamov U. “Sabo va Samandar”, Yangi asr avlodi, 2018.
3. Hakimov M. Tagma'no va tagbilim xususida ba'zi mulohazalar // O'TA. 2001, 1-son, – B.33.
4. Nurmonov A., Mahmudov N., Ahmedov A., Solixojayeva S. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. – Toshkent, Fan, 1992. – B. 118.
5. Падучева Е.В. Понятие презумпции в лингвистической семантике. “Семиотика и информатика”, 1977, в.8.;
6. Qurbonova M.A. O'zbek bolalar nutqining pragmatik xususiyatlari Filol.fanlari. dok.diss. – Toshkent, 2018. – B.140.
7. Rahimov U. Lisoniy presuppozitsiya // Ayub G'ulom va o'zbek tilshunosligi. – Toshkent, 2004. – B. 58.
8. Rahimov U. O'zbek tilida yuklamalar presuppozitsiyasi. Filol. fanlari nomz.dis.avtoref. Samarqand, 1994. – B.7,32,91.
9. Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. – Toshkent, 2008. – B. 318.



## MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
<b>I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI</b>		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
<b>II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.</b>		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
<b>III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI</b>		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
<b>IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI</b>		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
<b>V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI</b>		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafró 'z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab' ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo'noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obyektı sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774